



Times Higher Education
Impact Rankings



WORLD
UNIVERSITY
RANKINGS
ASIA 2025



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI

“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

I

9-10-sentabr
2025-yil

Buxoro - 2025



 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

Tel.: (65) 221-29-14
Faks: (65) 221-27-07

E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz
Manzil: Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”**

Международная научно-практическая конференция

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”**

International Scientific and Practical Conference

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya vo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

Xulosa: Bugungi kunda Buxoro nafaqat tarixiy merosi, balki kelajakka qaratilgan rivojlanish strategiyasi bilan ham ajralib turadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turizmni raqamlashtirish, yoshlarni ilm-fanga jalb qilish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali Buxoro yangi taraqqiyot cho'qqilariga intilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida Buxoro viloyatida yirik sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda, qishloq xo'jaligi modernizatsiya qilinmoqda. Buxoro – o'zining buyuk o'tmishi bilan faxrlanadigan, bugungi yutuqlari bilan taraqqiyot yo'lida dadil qadam tashlayotgan va kelajakda yanada buyuk istiqbol sari intilayotgan shahar. Bu qadimiy diyorning sharaflari tarixi va zamonaviy rivojlanishi uyg'unlashib, uni nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon sivilizatsiyasi tarixida o'ziga xos o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narshaxiy, "Buxoro tarixi". – Toshkent: Fan, 1966.
2. Al-Buxoriy, "Al-Jome' as-sahih". – Qohira, 1894.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi "Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. YuNESKO Butunjahon merosi ro'yxati: Buxoro shahri (1993).
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023.
6. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

QONUNCHILIKDA MILLIY MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATIGA AHAMIYAT

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda milliy madaniy markazlar faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi borasidada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, qonunchilikda millatlararo munosabatlar va dinlararo bag'rikenglik masalasini naqadar muhimligi, aks ettirilishi va xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: milliy madaniy markazlar, tolerantlik, bag'rikenglik, munosabat, millatlararo munosabatlar, totuvlik, millatlararo totuvlik, an'analar va urf-odatlar, til, din, milliylik, baynalmilal.

Yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisa bo'lib, bugun — Yangi O'zbekiston sharoitida yangicha ma'no-mazmun va an'analarga ega bo'lib borayotgani diqqatga sazovordir. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarining yanada emin-erkin yashashlari uchun keng ko'lamli ishlar qilinmoqda.

Millatlararo totuvlik g'oyasi butun jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. U tinchlik va farovonlikning kafolati, millatlararo hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Mazkur g'oya har bir millat vakili orzu-umidlari, iqtidori va iste'dodining to'liq ro'yobga chiqishi uchun zamin hozirlaydi hamda uni Vatan istiqboli, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umuminsoniy maqsadlar sari etaklaydi.

Bu borada ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [1], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabrda 1018-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"[2]gi Qarorlari alohida ahamiyatga ega.

Prezident farmonida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri — jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash ekanligi alohida ta'kidlangan.

Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasiga muvofiq, bu borada davlat siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar etib belgilangan.

jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning teng huquqlari va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash;

ko'p millatli O'zbekiston xalqining birligini, millat va elatlarning tiliga, huquqiy maydon doirasidagi urf-odatlari va an'analarga izzat-hurmat munosabatini mustahkamlash, ularning to'la huquqli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash;

respublikaning barcha millat va elatlari sa'y-harakatlarini oliyjanob g'oya — mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g'oyasi atrofida birlashtirish, kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini va demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta'minlash;

millatchilik va shovinizm namoyon bo'lishi ehtimoliga qarshi kurashish, fuqarolarning millatiga qarab kamsitilishiga hamda Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymaslik.

Ikkinchi bob so'ngida millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy prinsiplari ko'rsatilgan. Bular: fuqarolarning teng huquqliligi, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shu jumladan chet ellarda yashovchi fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat. Ushbu konsepsiyada ko'rsatilgan g'oyalar va maqsadlarni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi ham ishlab chiqilgan.

Qolaversa, Farmonga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom ishlab chiqilgan. Nizomga muvofiq, Jamoatchilik kengashining asosiy maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, Jamoatchilik kengashining tarkibi, Jamoatchilik kengashining ishchi organi, Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil qilish tartibi batafsil yoritib berilgan.

Bu borada amalga oshirilgan dadil qadamlardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi 52-son Farmoni hisoblanadi [3]. Unda umumilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqish masalasiga ahamiyat berilgan. Ushbu Farmon 6 bob va 3 ilovadan iborat. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Mazkur qo'mita jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda.

Poytaxtimizda millatlar va elatlarni hamjihatlikka chorlovchi «Do'stlik bog'i» barpo etilgan. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 157 ta milliy madaniy markaz, 42 ta do'stlik jamiyati va xorijdagi 100 dan ortiq vatandoshlar jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizda do'stlik va bag'rikenglik muhiti, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini mustahkamlash, chet ellar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar, xalq diplomatiyasini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ko'plab ijobiy natijalarga erishmoqda [4].

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda 130dan ortiq millat va elat vakillari erkin yashab, o'z imkoniyatlarini erkin namoyish etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Nafaqat yurt ichida davlat fuqarolari balki, mamlakat tashqarisida ham ularning farovon va to'la-to'kis hayot kechirishlari uchun imkoniyatlar talaygina.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-4597662>
2. <https://lex.uz/docs/-3476918>
3. <https://www.lex.uz/ru/docs/-7438950>
4. Hamidov O. "Yangi O'zbekiston-baxtiyor millatlar diyori"// Xalq so'zi, 2025-yil 2-avgust. #157.

B.-6.

BUXORO ZARDO'ZLIK FABRIKASI TARIXI

Utayeva Feruza Xolmamatovna

*Buxoro davlat universiteti
dotsenti, t.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yengil sanoat tarmoqlaridan biri bo'lgan zardo'zlik san'ati tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. O'zbekistonda zardo'zlikning vatani Buxoro hisoblanadi. Xususan, zardo'zlik sohasida tashkil etilgan hunarmandlik ustoxonasi, artel, sexlar va fabrika faoliyati yoritib berilgan. Dastlab zardo'zlik san'atiga ta'rif berildi.

К.А. Хайдаров, Г.А. Курбанов	Кластерный подход в развитии профессиональной компетенции преподавателей высших военных образовательных учреждений	237
Б.М. Хушвактов	Подготовка обучающегося к будущей профессиональной деятельности посредством игрового моделирования в конструктивистской педагогике	240
Э.Э.Саматова, А.В.Козленко, С.У.Рузиева, А.К.Толонова, О.А.Авазов	Автономия вузов и разработка образовательных стандартов: современные вызовы и креативные решения в Республике Киргизстан	245
М.Н. Усманова	Проектирование модельного лекционного занятия темы «Память» на технологической основе	250
Э.С. Эшов	Психология подготовки будущих учителей к инновационной деятельности на основе творческого подхода	258
N.N.Ashrapov	Oliy ta'limda innovatsiyalar orqali talabalarning raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligini oshirishning amaliy jihatlari	260
N.R. Axmadov	Oliy ta'lim tizimida raqamli innovatsiyalar va ijodiy yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'llari	265
F.F.Ganjiyev	Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalar orqali talabalarda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari	267
G.B. Murodova	Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarni tahlil qilish	272
D.M.Qodirova	Talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning o'rni	274
2-SHO'BA. BUXORO: SHARAFLI O'TMISHDAN, BUYUK ISTIQBOL SARI		
Б. С. Сафаралиев, К.Ф. Абдуллаев	Народно-календарные праздники как элемент материальной и духовной культуры таджиков восточной Бухары	279
И.И. Усманходжаев, Н.Т. Хасанова	Диагностика и укрепление минарета Калян в Бухаре: сейсмостойкость и стратегии сохранения в контексте международных стандартов	282
О. Шарипова	Жаҳон цивилизациясида Бухоро фалсафа тарихи мактабининг ўрни	283
Х.Тўраев	Кўхна сарой тарихи ёзма манбаларда	291
A.T.Ochilov	Buxoro davlat universiteti va Rossiya davlat ermitaj muzeyi hamkorlik yo'lida yoxud muzey xodimlarining Buxoro tarixiga doir tadqiqotlari	294
С. Раупов	Бухоро амирлигида махаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари	299
К. Р. Рахимов	Бухоро – илмлар академияси ёхуд чинорлар саҳрода ўсмайди	302
N. G. Dilova	Buxoro – ilm-fan va madaniyatning jahonshumul markazi	309
T. I. Rajabov	Buxoro musiqa folklorining umumiy musiqa ta'limi tizimidagi o'rni va jamoa bo'lib kuylashga o'rgatishning o'ziga xos jihatlari	312
B. I. Mustafayev	“Buxoro shashmaqomi” yosh avlodni ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda muhim omil sifatida	314
L. X. Xaydarova	Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyati: kelajakni bunyod etishdagi o'rinlari	317
A.S.Avazov, O.M.Salimov	O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining kadastr hujjatlari yaratish muammolari va usullari	320
R. A. Axtamov, B.R. Axtamov, N.B. Rustamov	Buxoro davlat universiteti geliotexnika maktabining qisqacha tarixi	323
F.Temirov	Akademik Sadridin Ayniyning Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) davridagi ilmiy-ijodiy faoliyati	328
B.B.Boltayev	Buxoro davlat universiteti o'tmishini tarixga muhrlagan muzey	331
D.T.Ismatova	Buxoro iqtisodiy transformatsiyasi: meros, modernizatsiya, barqarorlik	333
X.R.Nafiddinova.	Qonunchilikda milliy madaniy markazlar faoliyatiga ahamiyat	336
F.X. Utayeva	Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi	337
А.Абдукадиров, М.Абдукадыров	Исторический контекст: бухарский восточный рубеж и российская экономическая экспансия	341